

MUSIQA TA'LIMIDA XORIJIY DAVLATLAR IJOBIY TAJRIBA VA TENDENSIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Yuldasheva Xurshida

O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada musiqa ta'limida xorijiy davlatlar ijobiy tajriba va tendensiyalaridan foydalanishning pedagogik mohiyati va uning O'zbekiston musiqa ta'limiga ijobiy tasiri yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *modernizatsiya, innovatsion texnologiyalar, global strategiyalar, tendensiya, metodika, didaktik qonunlar, psixologik reaksiyalar, repertuar, modernizatsiya, konsepsiya.*

Аннотация: *В данной статье раскрыта педагогическая сущность использования положительного опыта и тенденций зарубежных стран в музыкальном образовании, а также их положительное влияние на музыкальное образование Узбекистана.*

Ключевые слова: *модернизация, инновационные технологии, глобальные стратегии, тенденция, методика, дидактические законы, психологические реакции, репертуар, модернизация, концепция.*

Annotation: *This article highlights the pedagogical essence of utilizing the positive experiences and trends of foreign countries in music education, as well as their positive impact on music education in Uzbekistan.*

Keywords: *modernization, innovative technologies, global strategies, trends, methodology, didactic laws, psychological reactions, repertoire, modernization, concept.*

Kirish. O'zbekistonning boy musiqiy merosi mavjud bo'lib, xorijiy tajribalar yordamida bu merosni saqlab qolish va rivojlantirishga erishish mumkin. Musiqa ta'limi orqali o'quvchilarni an'anaviy va zamonaviy musiqaning uyg'unligi bilan tanishtirish muhimdir. Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo'llash metodlarini takomillashtirish bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni

aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda musiqiy ta'limda xorijiy tajribalardan foydalanish muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston musiqa ta'limida xorijiy davlatlar ijobiy tajribasi va tendensiyalaridan foydalanish mavzusining dolzarbligi bir necha asosiy jihatlar bilan belgilanadi:

1. Globalizatsiya va madaniy almashuv

Hozirgi kunda globalizatsiya jarayonlari kuchaymoqda, bu esa turli madaniyatlar va san'at shakllarining bir-biriga yaqinlashishiga olib kelmoqda. O'zbekiston musiqa ta'limi xorijiy tajribalarni o'rganish orqali xalqaro standartlarga mos kelishi, o'zbek musiqasini global maydonda tanitishi mumkin.

2. Innovatsion yondashuvlar

Xorijiy mamlakatlarda musiqa ta'limida qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar, masalan, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim va interaktiv metodlar O'zbekiston ta'lim tizimida ham joriy etilishi zarur. Bu yangi usullar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

3. O'quv dasturlarining yangilanishi

Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston musiqa ta'limi dasturlarini yangilash va zamonaviylashtirish mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga kengroq bilim va ko'nikmalar berish, ularni professional musiqachilar sifatida tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Pedagogik malaka oshirish

Xorijiy davlatlardagi pedagogik tajribalarni o'rganish orqali O'zbekiston musiqa ta'limi muassasalaridagi o'qituvchilar va murabbiylarning malakasini oshirish mumkin. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini yaxshilaydi va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga yordam beradi.

5. Yosh avlodni tarbiyalash

Musiqa ta'limi yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy tajribalar yordamida O'zbekiston yoshlarining musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni ijodkorlikka va madaniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishga undash mumkin.

Jahonda va mamlakatimizda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy kuch sifatida e'tirof etilib, kompetensiya viy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari, ta'lim oluvchilar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish maqsadida zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotini birlashtirish zarur. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki tahsil oluvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu vazifa o'qituvchi mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilimi orqali amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etish va boshqarish tizimi yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida qurilganda, bu jarayonning samaradorligi oshadi va o'quvchilarga sifatli musiqiy ta'lim berish imkoniyatlari yaratiladi. Bunday yondashuv nafaqat musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, balki umuman ta'lim jarayonining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarning musiqqa ta'limidagi ijobiy tajribalari va tendensiyalaridan foydalanish, pedagogik jarayonni yanada samarali, qiziqarli va individual ravishda tashkil etishga yordam beradi. Bu esa bolalarning musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'plab mamlakatlarda maktab va maktabdan tashqari o'quv jarayonlari, ularning shakl va usullari katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko'plab davlatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish umumiy ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Har bir mamlakatdagi musiqqa tarbiyasi g'oyaviy va siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qiladi, shuning uchun bu jarayon e'tiqodlar bilan bog'liqdir. Har bir xalqning musiqqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonunlariga va o'sha xalqning milliy musiqqa madaniyati, tili va an'analariga asoslanadi. Shuningdek, musiqqa tarbiyasining struktura va tizimi, ilmiy va metodik yutuqlari boshqa millatlarning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarda yagona o'quv reja va dastur mavjud emas; davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar, kollejlari va oliy ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritadi. Bunda turli darajadagi estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik beriladi. O'qituvchi o'z maktabining sharoitlari, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgarishlar kiritishi mumkin. Musiqani o'rganish talabalarni o'z ishlarini bajarishga, birgalikda musiqqa yaratishga va ko'p qirrali musiqaga ega bo'lishga undashi kerak. Kattalar hayotiy tajriba va musiqqa darslariga ega bo'lishi kerak bir-biri bilan integratsiya bo'lib, ular yaxshi musiqiy munosabatlar va o'rganish uchun sharoit yaratadilar. Musiqqa darslarida inovatsion texnik vositalaridan foydalaniladi. O'quvchilar elektr cholg'u asboblari chalang kuylaydilar, aytishuv, harakatlar, bir-birlariga jo'rnavezlik qiladilar. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlari o'rta chiqadi.

Bolalarning musiqqa bo'lgan qiziqishi ularga taqdim etilgan musiqqa orqali rivojlanadi, ularning oiladagi muhiti esa shaxsiy iste'dodini rivojlanishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan kuyni tinglash va uni tahlil qilish cholg'ularda jo'r bo'lish orqali dastlabgi psixologik reaksiyalar paydo bo'ladi.

Musiqada aks etgan fikr, rang-barang g'oya va obrazlar orqali o'quvchi ma'naviyatini rivojlantirish mumkin. Haqiqiy musiqiy idrok hissiy va mazmunli harakat, voqelikni aks ettirishning maxsus shakli, estetik badiiy hodisa sifatida tavsiflanadi. Musiqiy idrokning ezoterik xususiyatiga egaligiga qaramay, badiiy asarni tinglash jarayonida inson tabiiy ravishda fikrlashning stereotiplardan va ko'plab sub'ektiv omillarning ta'siridan mustaqil hulosalar chiqara boshlaydi.

Umumta'lim maktablarda musiqa darsi shuunchaki yuzaki olib borilmasdan o'quvchining musiqa madaniyatiga qiziqishini uyg'otish kerak deb hisoblayman. Musiqa bilan shug'ullangan musiqa cholg'usida asar ijro eta olgan bolalarda ikki tomon yarim miyya sharlari ham yaxshi ishlashi isbotlangan. Musiqa ta'limi bolalar miyyasi faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa bilan shug'ullanish, bolalarning kognitiv, emosional va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida musiqa ta'limining bolalar miyyasiga ta'siri haqida ba'zi asosiy jihatlar keltirilgan:

1. Kognitiv rivojlanish: Musiqa ta'limi bolalarning xotira, diqqat va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Musiqa notalarini o'rganish va ijro etish miyaning turli qismlarini faoliyatga jalb qiladi.

2. Emosional rivojlanish: Musiqa bolalarning hissiyotlarini ifoda etishlariga yordam beradi. Musiqani tinglash yoki ijro etish orqali bolalar o'z hissiyotlarini tushunish va boshqarishni o'rganadilar.

3. Ijodkorlik: Musiqa ta'limi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bolalar musiqani yaratish, yangi melodiya va ritmlar o'ylab topish orqali ijodkorlik ko'nikmalarini oshiradilar.

4. Ijtimoiy ko'nikmalar: Musiqa guruhlarda ijro etilganda, bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, jamoada ishlashni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalar kelajakda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

5. Tartib-intizom va sabr-toqat: Musiqa o'rganish jarayoni bolalarga sabr-toqat va mehnatsevarlikni o'rgatadi. Ular maqsadga erishish uchun muntazam ravishda mashq qilishlari kerak.

6. Til rivojlanishi: Musiqa va til o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Musiqa orqali bolalar tovushlarni ajratishni, ritm va vokal ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularning til rivojlanishiga yordam beradi.

Umuman olganda, musiqa ta'limi bolalar miyyasining rivojlanishi uchun muhim vosita bo'lib, ularning umumiy barkamolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z o'rnida bolalar mustaqil qaror qabul qila olishida va albatta musiqa madaniyati bilan tanishgan bolalarning estetik tarbiyasi rivojlanishida o'z samarasini ko'rsatadi. Buning natijasida bir tomondan, bolalar va o'spirinlarning musiqiy shou-dasturlari va tadbirlarida ishtirok etishga bo'lgan ommaviy istagi hosil bo'ladi. Boshqa tomondan, ularning yuksak badiiy asarga nisbatan insonning ma'naviy dunyo qarashini, hayotiy tajribasini rivojlanishiga, ijtimoiy ong shakli sifatida aks ettiradigan san'at turiga ijobiy munosabati shakllanadi. Bundan tashqari, halqaro tajribalarni o'rganish musiqani o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari va yoshlar musiqiy submadaniyatining estetik g'oyalariga ta'sirini kuchaytirish kabi o'quv jarayonining millarini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

“Musiqa madaniyati” faning o'quv dasturda milliy musiqa folklorining xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, xalqning an'anaviy musiqa madaniyatiga

intonatsion jihatdan yaqin bo'lgan badiiy repertuardan foydalanish kabi talablar belgilangan. Shu bilan birga, jahon badiiy merosi namunalari bilan milliy halq va mumtoz musiqa durdonalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur. Musiqa madaniyatida qo'llaniladigan faoliyat turlarida ta'lim mazmuni bo'lgan repertuar tanlash jarayonlari ham qayta ko'rib chiqilishi va soddalashtirilishi maqsadga muvofiq. Ta'lim mazmuni bolalar va o'smirlarning musiqa ta'limini insonparvarlashtirish g'oyasini hayotga tadbqiq etish, zamonaviy umumta'lim maktabida musiqa darslarining ahamiyatini oshirish va muammolarini hal etish uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu g'oyani amalga oshirishning bir necha yo'llari mavjud:

- maktab o'quvchilarini musiqa san'atini o'rganishga rag'batlantirish (elektron darsliklardan foydalanish, mustaqil ishlash, muammoli ta'lim loyiha faoliyati usuli);
- bolalarning estetik ehtiyojlari va musiqiy hohishlarini qondirish;
- musiqa asarga nisbatan obrazli tasavvurni yaratish o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi musiqning ifoda vositalarini yaratilishining natijaviy mazmunini aks ettiradi;
- o'quv jarayonida innovatsion usullar va eng zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (kompyuter texnologiyalari asosida darslarni o'tkazish, bu esa o'quvchilar uchun darslarning jozibadorligini ta'minlaydi; bolaning musiqaning badiiy mazmunini shaxsiy tushunishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi ijodiy faoliyatini rivojlantirish
- interfaol metodlardan foydalanish.

Rossiyada musiqa ta'limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi ilgari surilgan. Ta'lim sifatining yangi mezonlari mavjud bo'lib, maktab bitiruvchisi mehnat bozoriga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradigan universal bilimlar tizimini yaratish konsepsiyasini ilgari suradi.

Shuningdek, ta'lim oluvchining muammolarni mustaqil hal qilishga ijodiy yondashish imkonini beruvchi yuksak ijodiy fikrlashga ega bo'lishi, atrofdagi voqelikni va axborotni tanqidiy baholay oladigan yetuk shaxs sifatida shakllanishi ko'zda tutilgan. Bunda musiqa darslari katta rol o'ynaydi, chunki o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi juda muhimdir. "Musiqa pedagogikasi" uchta komponentdan tashkil topadi: motivatsion, faoliyatli va mazmunni aks ettiruvchi komponentlar. Musiqa darslarida ijodkorlikni rivojlantirish, birinchi navbatda, bolaning musiqiy va ijodiy faoliyatini mativatsion faollashtirish bilan bog'liq. Albatta, musiqiy faoliyatning barcha turlari ijodkorligini namoyon etadi: "tinglovchi" (musiqani ijodiy idrok etadi, talqin qiladi), "ijrochi" (Musiqani ijro etadi), "bastakor" (haqiqatga munosabatini bildiradigan badiiy tasvirni yaratadi). Shning uchun, musiqa san'ati bolalar qobiliyatni rivojlantira oladi. Musiqa faqatgina bolaning hissiy sohasigagina emas, uning intellektual, kognitiv va fiziologik rivojlanishiga yo'l ochadi. Bular albatta, musiqiy ta'lim sifatini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Bolalarni musiqaga jalb qilish, pedagogik jarayonning an'anaviy va innovatsion shakl, usul va vositalaridan foydalanib o'yin va muammoli ta'lim strategiyalarini ozida mujassam etishi shart. O'quvchini san'atning emotsional-semantik makoniga singdirish usullaridan biri bilimlarni muammoli taqdim qilishdir. Bolani musiqa bilan tanishtirish vositasi sifatida muammoning paydo bo'lishi, bir tomondan, musiqaning intonatsion tabiatini, insonga ta'sirining o'ziga xos mazmunini tushunishga imkon beradi. Boshqa tomondan, muammoli ta'lim musiqa darslariga mazmunan badiiy va shakl jihatdan tarbiyaviy faoliyatga asoslangan yondashuvni ta'minlash shartidir.

Bastakor musiqa yaratar ekan, hayotni tinglaydi, uni badiiy obrazlarda gavdalandiradi. Ijrochi kompozitor bastalagan asarda hayotni eshitishga, tinglovchi esa kompozitor va bastakor yaratgan asar orqali hayotni o'rganishga harakat qiladi. Bunda kompozitor hayotni musiqada aks ettirar ekan, tasvirlangan hodisaga hamisha hissiy baho berishi bolalarning diqqatini tortadi. Muammoni kiritish zaruratining muhim jihati bu ta'lim oluvchi san'atning paydo bo'lishi sababi va insonga ta'sirini anglashga yo'nalganligidadir. Musiqa san'ati insonga poetik ong, hayotning go'zalligini ko'ra olish, qadrlash va hayotiy hodisalarni badiiy obraz orqali umumlashgan shaklda aks ettira olish imkonini beradi. Musiqa atrofimizdagi hayotni faqat falsafiy darajada aks ettiradi va shu orqali his-tuyg'ularimiz va fikrlarimizni yuksaltiradi.

O'zbekiston musiqa ta'limida xorijiy davlatlar ijobiy tajriba va tendensiyalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish hozirgi kunda dolzarb masalalar qatorida turibdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari maktablarida boshlang'ich sinflarida musiqa darslari har kuni 20-30 daqiqa bo'ladi. Musiqa darslarni ham umumiy fanlar o'qituvchilari olib boradilar. Darslarda o'quvchilar musiqa ohanglari ostida raqsga tushadilar, qo'shiq va ibodat qo'shiqlarini kuylaydilar, xar-hil mashqlar bajaradilar. Umumta'lim maktablarida musiqa darslari dars jadvaliga xardoim ham kiritilavermaydi, ko'pincha ular darsdan tashqari o'tkaziladi.

Darsdan tashqari soalarda xor, orkestr, ansamblardan bo'lib o'tadi va simfonik kontsertlar ham o'tkaziladi. Musiqa darslarida turli musiqa cholg'u asboblari, kichik baraban, uchburchak, musiqali qutichalardan foydaniladi.

Uchunchi sinf o'quvchilariga orkestr cholg'ularini chalish o'rgatiladi, keyinchalik xamma cholg'ular birlashib maktab orkestri tashkil qilinadi.

Maktab musiqa o'qituvchilarini kollej va universitetlar tayyorlaydilar. AQSh musiqa ta'limida aniq tizim va bir xillik yo'q; o'quv muassasalarini davlat, shaxslar va turli kompaniyalar boshqarishadi, buning natijasida xilma-xillik shakllanadi. Musiqa darslarining shakli hamda mazmuni, soatlarini o'qituvchilar belgilaydilar. Quyi bosqichlarda musiqa pedagoglari yetishmaydi shuning uchun maktablarida yosh kompozitorlar pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Ular o'z musiqalari ijro etilgan joylarda mahoratlarini namoyon etadilar. Buning natijasida, o'quvchilar kompozitorlar bilan muloqot qila oladilar, bu juda muhim va keraklidir.

Amerikada XIX asrda vujudga kelgan konservatoriyalar universitetlarga tarkibiga kirib ketgan. Bunda ta'limni yaxshilanishiga talaba va o'quvchilarga faqatgina musiqali tayyorgarlikni berish emas, balki adabiyot, san'atning xar-hil turlari bo'yicha bilimlarini kengaytiriishga erishilgan.

Angliya misol qilib oladigan bo'lsak 1969-1970 yillarda Britaniyada radio orqali maktab yoshdagi bolalar uchun yaratilgan 10 daqiqali musiqa eshittirishlarini ko'rishimiz mumkin. Bunday eshittirishlarning maqsadi – maktab bolalarning musiqa cholg'ularini ijro etishga qiziqish uyg'otish bo'lgan: bolalar eshittirish vaqtida musiqani ijro etishlari kerak bo'lgan keyinchalik, dasturlar magnit tasmlariga yozilib, maktablarga yuborilgan. Hozirgi vaqtlarda Angliya maktablarida DJ.Kerven (1816-1880) tomonidan yaratilgan, reletiv tizimiga asosidagi musiqiy darslar qo'llanilmoqda.

Vengeriyada musiqa fanlari xozirda Zaltan Koday (1883-1967) nomi bilan bog'liqdir. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiyasi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Koday xor jamoasida hamma ham kuylay olishini alohida ta'kidlagan, bolalarni xor ijrochiligiga jalb etgan. Uning ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday maktablarga «Tonika-sol-fa» usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommaga yoyilib ketdi. Koday metodi nisbiy solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar va Akapella guruhli kuylashdan iborat. Xozirda Koday tizimi umumta'lim maktablarida musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Z.Koday tizimi xar-hil milliy madaniy an'analarga moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning ko'pgina mamlakatlarida ommalashib ketdi.

Germaniyaning buyuk pedagog va kompozitori Karl Orf (1895-1982) qator mamlakatlarda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiyasining asoschisi hisoblanadi. Shveysariyalik pedagog E.Jak-Dolkroz (1865-1950)ning tizimiga asosida Karl Orf "Elementar musiqa" g'oyasini ishlab chiqdi va Myunxendagi Guntenshule (Gunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o'qitish uslubiga aylantiradi. K.Orf nomidagi o'quv dargohida 400 dan ziyod talaba, 50 dan ortiq pedagogdan ta'lim oladi. K.Orfning yaratgan bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiya usuli folklordan keng miqyosda foydalanishga asoslangan. Aynan shu o'quv usuli xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Shulverk» to'plamida o'zining badiiy-metodik talqinini topdi.

Besh jildlik «Shulverk» uslubiy qo'llanmasi, asosan umumta'lim maktablarida to'rt yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan bo'lib xalq musiqa ijodiga asoslangan. Qo'llanmadagi p'esalar bolalar ijodiy imkoniyatlarini rivojlantiradi. «Shulverk» asarlari xalq qo'shiqlari asosida bastalangan va bu to'plamda xalq she'riyat matnlariga ham o'rin berilgan.

Orfning fikricha, bolalarga nafaqat kuylashga yoki biror cholg'u asbobida ijro etishga o'rgatish mumkin, balki, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani

ijod etish qobiliyatini rivojlantirish ham mumkindir. Bunda guruhdagi bolalar 10-12 kishidan ko'p bo'lmashligi kerak. Hamma mashg'ulotlar jamoaviy tarzda olib boriladi, bunda bolalar qo'shiq ijro etib raqsga tushadilar, musiqa cholg'ularida chaladilar, turli jismoniy mashqlarni bajaradilar. Keyinchalik bolalar, tomosha-sahnachalarni hatto spektakl, undagi musiqa, matnlarni o'zlari yarata oladilar. Karl Orf bolalar mashg'ulotlari kunning ikkinchi yarmida o'tkaziladi. K.Orfning didaktik kontsepsiyasi mamlakatlar o'quv amaliyotida ommalashgan bo'lib, ijodiy tafakkurni rag'batlantirishga ko'maklashadi. Orf kontsepsiyasi Markaziy Osiyoda Chimkent shahrida shuningdek, Toshkent shahri ba'zi umumta'lim maktablarida tadbqiq qilinadi.

Yaponiyada davlatida ham yagona o'quv dasturga amal qilinmaydi. Uyerda musiqa tarbiyasining o'z sistemasi vujudga kelgan va bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya olib boriladi. Yaponiyada estetik tarbiya integratsiya qilingan va musiqa, tasviriy san'at va mehnat birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida;
- b) 6-14 yoshgacha toliqsiz o'rta maktab;
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi;
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabl.

Bog'chalarda «Suzuki» tizimi qo'llaniladi. Uning tizimida ona tili musiqa ohangi yordamida o'qitiladi. Bolalar biron bir cholg'u asboblarda kuy chalishni o'rganadilar. Mashg'ulotlarda ota-onalar ham ishtirok etadi va uning mazmuni va maqsadidan habardor bo'ladilar. Suzuki tizimida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas.

Oilada gramzapis, televideniye, kontsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bog'cha va oilaning hamkorligi katta o'rin tutadi. Buning natijasida 5-6 yoshli bolalar Betxovenning sonatalarini chala olish imkoniyatiga erishadilar. Bolalar sinfdan sinfga o'tkani sari estetik tarbiya bir predmet sifatida qiynlashib boradi. Katta sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq san'ati tanqidchilari ta'lim oladilar.

O'qituvchi va kadrlarni oliy pedagogika va san'at oliyogohlari tayyorlaydilar. O'qituvchilar, Yevropa mamlakatlarigaa borib o'z bilim va malakalarini oshiradilar. Suzuki tizmi bolalarga uchun mahsus, progressiv musiqa o'qitish dasturidir va musiqa ta'limining ko'p jihatlarini o'rgatadi. Bu tizim yapon skripkachisi Shinichi Suzuki tomonidan XX asr o'rtalarida Yaponiyada vujudga kelgan va ko'plab xalqlarda kengayib qabul qilingan. Suzuki xuddi nutq og'zaki harflardan tashkil topgani kabi musiqa nota tovushlaridan tashkil topgan deb hisoblagan. Bolaning o'z ona tilini o'rganganidek, boshqalarning nutqini tinglash va ularning orqasidan takrorlashga harakat qilish orqali o'rgatish mumkin.

Suzuki g'oyasi u katta bo'lib nemis tilini o'rganishni boshlaganida paydo bo'lgan. Tilni o'rganish unga juda qiyin bo'lgan lekin juda tez o'zlashtirgan. Bolalar miyasi shunday tuzilganki, qisqa vaqt ichida faqat boshqalar aytganlarini tinglash va takrorlash orqali o'zlashtirish tura oladilar. Musiqiy til ham og'zaki til kabi tovushlarga

asoslangan va bolaningning miyasi musiqiy tilni o'zlashtirish uchun og'zaki tilni tez o'zlashtira olish mexanizmlaridan foydalanishi mumkinligini tushunib yetdi. Kichik bolalar bilan mashg'ulotlarni boshlab, o'z taxminining to'g'riligini tasdiqladi va bunung samaradorligiga ishonib, uni ommalashtirish harakatiga tushdi. Suzuki, urushdan vayron bo'lgan Yaponiya bolalarining qiyin bolaligiga musiqa quvonchini olib kelishni xohlagan, keyinchalik esa o'z usuli tarqalishi bilan dunyodagi barcha bolalarga musiqiy tilni o'rgatish niyati bo'lgan. Uning Falsafasiga asosan bolalar tug'ilgan kundan chiroyli musiqani eshitsa va o'zi ijro etishni o'rgansa, ularda sezgirlik, intizom va qat'iyatlilik rivojlanadi.

Suzuki har bir bolada iste'dod yashiringan va har bir bola, musiqa bilan yetarlicha kichik yoshdan shug'ullanishni boshlasa, katta musiqiy yutuqlarga erishadi deb hisoblagan. Ota-onalarga farzanddan professionallarni yaratish, bolalarni "tortib olish" istagiga juda yomon qaragan. Suzuki uslubini bolalar hayotini boyitishga, ularni baxtli qilishga va musiqa orqali "oliyjanob yurakni" tarbiyalash uchun vujudga kelganini ta'kidladi. Bu metodika tamoyillari asosan 2-4 yoshdan boshlashga asoslangan. Musiqani o'rgatishdan avval musiqani quloq bilan tinglashi, bolaning musiqiy olamga to'liq kirishi, uyda xardoim musiqa bo'lishi tavsiya etilgan va bola asarlarni ko'p-ko'p eshitishi kerak bo'lgan.

Ota-onalar ishtirokining sababi bola bilan shug'ullanishlari kerakligi va bu mashg'ulotlarda juda muhimligi bo'lgan. Suzuki tizmida barcha musiqa o'qituvchilari maxsus tayyorgarlikdan o'tishgan va malakalarini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lishgan.

Bolalar uchun musiqa cholg'usida chiroyli tovushni chiqarishga e'tibor texnik jihatdan tabiiy yo'l hisoblangan, bola boshqa bolalar bilan musiqa chalishi kerak bo'lgan va bu unga ijro paytida boshqa asboblarni eshitishni o'rgatgan. Butun jahon bo'ylab Suzuki o'qituvchilari va maktablari xardoim yangilanib turadigan yagona repertuardan foydalanganlar. Bolalar birbirlari bilan faol muloqot qilishlari kerak va bu ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Suzuki tizimi va qolgan tizimlarning farqi musiqani ijro etishni o'rgatishdan oldin musiqani tinglashni o'rgatishdir. Suzukiga ko'ra, bularning hammasi bolalarga katta foyda olib keladi, bolalarning musiqiy eshitish qobiliyatini yaxshi rivojlantiradi va xotirani yaxshilaydi. Shu bilan birga, an'anaviy usullarning o'qituvchilari ta'kidlashlaricha, allaqachon musiqani quloq bilan yaxshi ijro etishni va uni yodlashni o'rgangan bolani notalarni o'qishga majbur qilish juda qiyin, eng sodda va qiziq bo'lmagan asarlarga qaytish, bu kelajakda bolaning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Suzuki usuli – bu musiqa ta'limida o'quvchilarga musiqa ijrochiligini o'rganishning innovatsion yondashuvi bo'lib, u Shinichi Suzuki tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu usul, asosan, bolalarga erta yoshdan musiqa o'rganishga yordam berish va ularni ijodiy fikrlashga rag'batlantirishga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida

Suzuki usulini qo'llash bir qator afzalliklar va imkoniyatlar yaratishi mumkin. Quyida bu usulni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari va muammolarini ko'rib chiqamiz.

Afzalliklari

1. Erta yoshdan ta'lim:

• Suzuki usuli bolalarni erta yoshdan musiqa o'rganishga jalb qiladi, bu esa ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

2. Ota-onalar Ishtiroki:

• Suzuki usuli ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qiladi va bu bolalardagi motivatsiyani oshiradi va oilada musiqiy muhitni mustahkamlaydi.

3. Ijodiy yondashuv:

– o'qitish vaqtida ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi va bu o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlanishiga olib keladi.

4. Amaliy mashg'ulotlar:

– amaliy mashg'ulotlar, bolalar musiqa cholg'ularini tez o'zlashtirishiga asos bo'ladi.

5. Yuqori sifatli ta'lim:

– Suzuki tizimi orqali ta'lim berish, bolalarga yaxshi va sifatli musiqa ta'limini taqdim etadi va musiqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammolari:

1. O'qituvchilar malakasi:

Suzuki usulini samarali qo'llash uchun malakali o'qituvchilar zarur. O'zbekistonda ushbu usulni o'qitish bo'yicha malaka oshirish imkoniyatlari cheklangan.

2. Resurslar yetishmasligi:

– musiqa asboblari va o'quv materiallarining yetishmasligi, ushbu usulni kengaytirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

3. Madaniy o'ziga xosliklar:

Mahalliy musiqiy madaniyat va an'analarni hisobga olish zarur. Suzuki usuli ko'proq g'arbiy musiqaga asoslangan, shuning uchun mahalliy musiqiy an'analar bilan uyg'unlashtirish muhim.

4. Ta'lim tizimidagi qiyinchiliklar:

Umumiy ta'lim tizimining bir xilligi va standartlashtirilgan yondashuvlar, Suzuki usulining innovatsion yondashuvlarini amalga oshirishda muammolar tug'dirishi mumkin.

5. Ijtimoiy fikrlar:

Musiqa ta'limiga nisbatan ijtimoiy fikrlar va qadriyatlar ham ushbu usulning qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida Suzuki usulini qo'llash, bolalarga musiqa ta'limini sifatli va qiziqarli tarzda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Biroq, ushbu usulni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali o'qituvchilarni tayyorlash, zaruriy resurslarni

ta'minlash va mahalliy musiqiy an'analarni hisobga olish muhimdir. O'zbekistonda musiqa ta'limini rivojlantirishda Suzuki usuli samarali vosita bo'lishi mumkin

Pedagoglarning ta'limni xorijiy davlatlar ijobiy tajribalari va tendensiyalari asosida tashkil etishga oid fikrlariga qo'shilgan holda, innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish ma'lum bir ehtiyoj kasb etishini har doim nazarda tutish lozim. Musiqiy ta'limni xorijiy davlatlar ijobiy tajribalari va tendensiyalari asosida tashkil qilish jarayonida bir qancha muammoli vaziyatlar paydo bo'ladi. Uning yechimi esa, dissertatsiyaning umumiy mazmuni va aniq vazifalarini belgilab olishga shart-sharoit yaratib beradi. Ushbu vazifalardan biri - mavjud tadqiqot va qarashlarni o'rganishdan iborat. Xorijiy ijobiy tajribalardan foydalanish pedagogika fanida o'z echimini topmagan muammolar qatoriga kiradi va uni tahlil etishda, didaktika tarmog'ida ushbu muammoni samarali o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyoti ta'lim jarayonida muntazam yangicha yondashuvni taqozo etadi. Bu borada musiqa ta'limini xorijiy davlatlar ijobiy tajriba va tendensiyalaridan foydalanish asosida tashkil etish ta'lim samaradorligining bosh omili sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quvchi o'ziga xos shaxsiy hamda kasbiy sifatlarga ega bo'ladi. Ta'limni xorijiy ijobiy tajribalar va tendensiyalar asosida tashkil etishda ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligiga amal qilinsa, bilim oluvchida ta'lim jarayonining bosh maqsadi hisoblangan ijodiy izlanuvchanlik, ijodkorlik faoliyati shakllanadi. Musiqa ta'limini xorijiy davlatlar ijobiy tajriba va tendensiyalaridan foydalanish asosida tashkil etish jamiyat taraqqiyoti uchun faol xizmat qiluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdek muhim vazifaning hal etilishida o'quvchi va o'qituvchining o'zaro hamkorlik faoliyatiga yangicha yondashuvning didaktik imkoniyatlarini ochib beradi. O'quv jarayoni samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar ijobiy tajribasi va tendensiyalaridan foydalanish tadqiqoti ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot nafaqat o'qituvchilar va o'quvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun ijobiy natijalar keltirishi mumkin. Tajribalarni o'z sharoitimizga moslashtirish orqali biz ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodni muvaffaqiyatli tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.Б. Караев — Педагогические основы музыкального воспитания
2. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi 2018
3. Nurmatov H.N "O'zbek xalq musiqa ijodi" o'quv qo'llanma T. 2007
4. В.Г. Беляев — Основы музыкальной педагогики
5. Ю.И. Бабаев — Музыкальное воспитание в общеобразовательной школе
6. Zokirova M. — Musiqa ta'limida ijodkorlikni shakllantirish metodikasi